



Application of Preventive Measures: A comparative legal analysis of the Republic of Uzbekistan and Spain

Kambarova Shahzoda Alisherovna

Second year student of “International law” faculty University of World Economy and Diplomacy

Annotation:

This article provides a comparative legal analysis of preventive measures applied in the criminal procedural systems of the Republic of Uzbekistan and Spain and based on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and the Spanish *Ley de Enjuiciamiento Criminal*, the study examines the legal foundations, types, conditions, and purposes of preventive measures. In particular, such measures as detention, house arrest, bail, personal guarantee, judicial supervision, passport confiscation, restraining orders, and electronic monitoring are analyzed. Special attention is paid to the principle of applying detention in Spain only as a “measure of last resort” (*ultima ratio*) and to mechanisms aimed at protecting human rights and the article also develops proposals for the gradual implementation of advanced Spanish experience into the legislation of Uzbekistan. The research substantiates the necessity of expanding alternative preventive measures, improving electronic monitoring systems, and strengthening mechanisms for the protection of victims.

Keywords:

Criminal procedural law, preventive measures, detention, house arrest, bail, personal guarantee, electronic monitoring, protection order, Spanish experience, comparative legal analysis, human rights, *ultima ratio*, Criminal Procedure Code, judicial supervision.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Ispaniya jinoyat-protsessual tizimlarida qo'llaniladigan ehtiyot choralarining huquqiy asoslari hamda amaliyoti qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi va tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Ispaniyaning *Ley de Enjuiciamiento Criminal* qonunchiligi asosida ehtiyot choralarining turlari, ularni qo'llash shartlari va maqsadlari yoritilgan. Xususan, qamoqqa olish, uy qamog'i, garov, shaxsiy kafillik, sud nazorati, pasportni olib qo'yish, yaqinlashishni taqiqlash hamda



Learning and Sustainable Innovation

elektron kuzatuv kabi choralar o'rganilib, shuningdek, Ispaniyada qamoqqa olishning "oxirgi chora" (*ultima ratio*) tamoyili asosida qo'llanishi va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlar tahlil qilinib, ushbu tajribani O'zbekiston qonunchiligiga bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga harakat qilaman. Tadqiqot natijasida ehtiyot choralari qo'llashda muqobil choralarni kengaytirish, elektron nazorat tizimini rivojlantirish hamda jabrlanuvchilarni himoya qilish institutlarini takomillashtirish zarurligi asoslab beraman.

Kalit so'zlar:

Jinoyat protsessual huquqi, ehtiyot choralari, qamoqqa olish, uy qamog'i, garov, shaxsiy kafillik, elektron kuzatuv, himoya orderi, Ispaniya tajribasi, qiyosiy-huquqiy tahlil, inson huquqlari, *ultima ratio*, Jinoyat-protsessual kodeksi, sud nazorati.

Аннотация:

В данной статье проведён сравнительно-правовой анализ мер пресечения, применяемых в уголовно-процессуальных системах Республики Узбекистан и Испании. На основе Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан и испанского закона *Ley de Enjuiciamiento Criminal* исследованы правовые основы, виды, условия и цели применения мер пресечения. В частности, рассмотрены такие меры, как заключение под стражу, домашний арест, залог, личное поручительство, судебный контроль, изъятие паспорта, запрет на приближение и электронное наблюдение. Особое внимание уделено принципу применения заключения под стражу в Испании как "крайней меры" (*ultima ratio*), а также механизмам, направленным на защиту прав человека. На основе проведённого анализа разработаны предложения по поэтапному внедрению положительного испанского опыта в законодательство Узбекистана. В результате исследования обоснована необходимость расширения альтернативных мер пресечения, совершенствования системы электронного контроля и усиления механизмов защиты потерпевших.

Ключевые слова:

Уголовно-процессуальное право, меры пресечения, заключение под стражу, домашний арест, залог, личное поручительство, электронное наблюдение, охранный ордер, опыт Испании, сравнительно-правовой анализ, права человека, *ultima ratio*, Уголовно-процессуальный кодекс, судебный контроль.



Kirish

Jinoyat protsessual huquqida ehtiyot choralarining instituti jinoyat ishini yuritishda muhim o'rin tutadi va ushbu choralar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining protsessual majburiyatlarini bajarishini ta'minlash, tergov va suddan yashirinib ketishining oldini olish hamda yangi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, ehtiyot choralarini qo'llash shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari, xususan, erkinlik huquqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ushbu institutni qo'llashda proporsionallik, zarurat va adolatlilik tamoyillariga amal qilish muhimdir. Mazkur ishda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan ehtiyot choralarining huquqiy asoslarini tahlil qilaman, hamda Ispaniya tajribasi bilan qiyoslab, takliflar berishga harakat qilaman.

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EHTIYOT CHORALARI

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ehtiyot choralarining huquqiy asoslari **236–254-moddalarda** belgilangan bo'lib, JPKning **236-moddasiga** ko'ra, ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvchidan dastlabdki tergovdan va suddan bo'yin tovlashning oldini olish, uning bundan buyongi jinoiy faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llanadi. yashirinib ketishining oldini olish, jinoyat faoliyatini davom ettirishiga yo'l qo'ymaslik hamda hukm ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Shuningdek, shu moddaning davomiga muvofiq, ayblanuvchi, sudlanuvchi sodir etgan, Jinoyat kodeksi 15-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyatning xavfliligi tufayli u surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan yashirinishi mumkin degan o'rinli taxmin ham qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asos bo'lishi mumkin. Ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirilishini kutayotgan shaxslarga, shuningdek aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxslarga nisbatan ehtiyot choralari ularning qochib ketishining va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish, shuningdek tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash haqidagi sud ajrimining ijrosini ta'minlash maqsadida qo'llanilishi mumkin.

JPK 237-moddasiga ko'ra, ehtiyot choralariga quyidagilar kiradi:

- 1) munosib xulq-atvorda bo'lish to'g'risida tilxat;
- 2) shaxsiy kafillik, jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi;



- 3) garov;
- 4) uy qamog‘i;
- 5) qamoqqa olish;
- 6) voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish uchun topshirish;
- 7) harbiy xizmatchining xulq-atvori ustidan qo‘mondonlik kuzatuvi.

Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o‘zida ana shu choralardan faqat bittasi qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi. Shuningdek, bu choralarni qo‘llashda e‘tiborga olinadigan holatlar ham mavjud bo‘lib, bu JPK **238-moddasida** keltirilgan va unga ko‘ra ehtiyot choralaridan qaysi birini qo‘llash to‘g‘risidagi masalani hal qilishda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ushbu Kodeksning **236-m** nazarda tutilgan asoslardan tashqari qo‘yilgan aybning og‘irligini, ayblanuvchining shaxsini, mashg‘ulot turini, yoshi, sog‘lig‘i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni ham hisobga oladi. Ehtiyot chorasi qo‘llanadigan shaxslar esa **239-moddada** keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra ehtiyot chorasi faqat ayblanuvchilarga, sudlanuvchilarga, mahkumlarga va aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan yoki jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Alohida hollarda, ishni sudga qadar yuritish bosqichida ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish, uy qamog‘i yoki garov tarzidagi ehtiyot choralari qo‘llanilishi mumkin. Qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosiga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi yoki uning Kengashi roziligi bilan;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakiliga (ombudsmanga) nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining roziligi bilan;
- 2¹) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining roziligi bilan;
- 3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputatiga, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashining deputatiga nisbatan - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, tegishli xalq deputatlari Kengashi roziligi bilan;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining sudyalariga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining roziligi bilan, O‘zbekiston



Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlarining, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlarining, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlarining, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlarining, tumanlararo ma‘muriy sudlarining va O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlarining sudyalariga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi mavjud bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining roziligi bilan;

4¹) O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining a‘zosiga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining roziligi bilan;

5) prokuror va prokuratura tergovchisiga nisbatan - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan qo‘llanilishi mumkin.

240-moddada esa ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish, o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim haqida keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra ehtiyot chorasi surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori va sudning ajrimi bilan qo‘llanilishi, bekor qilinishi va o‘zgartirilishi mumkin. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida qo‘llanilgan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi shaxsni bundan keyin qamoqda saqlash yoki uning uy qamog‘ida bo‘lishi uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ehtiyot choralari to‘g‘risida qaror chiqargan sudni albatta xabardor etgan holda bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi ushbu ehtiyot chorasini aynan o‘sha shaxsga nisbatan qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan sudga takroran murojaat etishga monelik qilmaydi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud tomonidan qo‘llanilgan garov tarzidagi ehtiyot chorasi uni bundan buyon qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda, xuddi shuningdek ish yuritish tugatilgan taqdirda, mazkur ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqargan sud albatta xabardor etilgan holda prokuror tomonidan, shuningdek prokurorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin. Ehtiyot chorasini qo‘llash, bekor qilish, o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorda yoki ajrimda: shaxsning qanday jinoyatni sodir etishda ayblanayotganligi; ehtiyot chorasi qanday qonuniy asoslarga tayanib qo‘llanganligi yoxud tegishli dalillar keltirish yo‘li bilan bu asoslar yo‘qligi yoki o‘zgargani; ehtiyot chorasini tanlashga ta‘sir qiluvchi, qonun bilan belgilangan holatlarni hisobga olib, ehtiyot choralari qo‘llash, bekor qilish yoki



o'zgartirish zaruratini izohlovchi sabablar ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qaror yoki ajrim kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxsga darhol e'lon qilinadi, shaxsning og'ir kasalligi yoki uning qochib ketganligi tufayli e'lon qilinishi mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno. Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi bekor qilingan yoxud o'zgartirilgan taqdirda, qamoqda yoki uy qamog'ida bo'lgan shaxs darhol ozod qilinishi kerak.

Endi har bir ehtiyot chorasini turlari haqida aytadigan bo'lsam, birinchisi **qamoqqa olish** va u JPKning **242-moddasida** keltirilgan.

Qamoqqa olish ehtiyot chorasi sifatida, odatda, qasddan sodir etilgan va uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlar bo'yicha qo'llaniladi. Alohida hollarda esa uch yildan ortiq bo'lmagan yoki besh yildan ortiq bo'lmagan jazo nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha ham qamoqqa olish qo'llanishi mumkin, agar ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tergov va suddan yashiringan bo'lsa, uning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa, ilgari qo'llangan ehtiyot chorasi buzilgan bo'lsa, u O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa yoki jinoyat jazoni o'tash davrida sodir etilgan bo'lsa qo'llanadi. **242¹-modda** esa uy qamog'u haqida bo'lib,

Uy qamog'i qamoqqa olish uchun asoslar mavjud bo'lgan hollarda, lekin shaxsning yoshi, sog'ligi, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar sababli qamoqqa olish maqsadga muvofiq bo'lmagan taqdirda qo'llaniladi. Uy qamog'i shaxsni yashash joyida yoki zarur hollarda tibbiy muassasada saqlashni nazarda tutadi hamda unga ma'lum taqiqlar va cheklovlar yuklanadi. Jumladan, u ayrim shaxslar bilan aloqa qilmasligi, xat-xabar almashmasligi, aloqa vositalaridan foydalanmasligi yoki yashash joyini tark etmasligi mumkin. Shu bilan birga, shaxs himoyachi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqa qilish hamda favqulodda xizmatlarni chaqirish huquqidan mahrum etilmaydi. Uy qamog'iga rioya etilishi ichki ishlar organlari tomonidan nazorat qilinadi, zarur hollarda elektron kuzatuv qo'llaniladi. Agar belgilangan cheklovlar buzilsa, ushbu ehtiyot chorasi qamoqqa olish bilan almashtirilishi mumkin.

249-modda garov haqida bo'lib, unga ko'ra **Garov** gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan surishtiruv, tergov organi yoki sudning depozit hisobvarag'iga pul mablag'i, qimmatbaho buyumlar yoki ayrim hollarda ko'chmas mulk sifatida topshiriladigan ehtiyot chorasidir. Garov miqdori kamida bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan kam



Learning and Sustainable Innovation

bo'lmasligi kerak va u ishning og'irligi, shaxsning holati hamda mulkiy imkoniyatlari hisobga olinib belgilanadi. Garov qo'yuvchi shaxsga majburiyatlar tushuntiriladi va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi majburiyatlarni buzsa, garov davlat foydasiga o'tkazilishi mumkinligi haqida ogohlantiriladi. Garov rasmiylashtiriladi va tegishli hujjatlarda qayd etiladi. Agar shaxs o'z majburiyatlarini buzmasa yoki ish tugatilsa, garov qaytariladi. Majburiyatlar buzilganda esa garov sud qarori bilan davlat mulkiga o'tkazilib, unga nisbatan yanada og'irroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

250-modda, bizda munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxat bo'lib, unga ko'ra **Tilxat** - ayblanuvchi yoki sudlanuvchining tergov va suddan yashirinmaslik, chaqiruvga kelish, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qilmaslik va jinoyat sodir etmaslik haqida yozma majburiyatidir. Shaxs yashash joyidan chiqmaslik va o'zgarishlarni xabar qilish majburiyatini ham oladi. Majburiyatlar buzilsa, unga nisbatan og'irroq ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin.

251-modda esa shaxsiy kafillik bo'lib, **shaxsiy kafillik** ishonchli shaxslarning ayblanuvchi yoki sudlanuvchining to'g'ri xulq-atvorda bo'lishiga kafillik berishidir.

Kafillar soni tegishli organlar tomonidan belgilanadi va ular shaxsning majburiyatlari hamda javobgarligi haqida ogohlantiriladi. Kafil o'z majburiyatidan voz kechishi mumkin, lekin ayblanuvchi yoki sudlanuvchi noto'g'ri xatti-harakat qilsa, kafil qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin.

252-moddada jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi bo'lib, jamoat birlashmasi yoki jamoa ayblanuvchining munosib xulq-atvoriga kafillik berishi mumkin. Bu yozma majburiyat shaklida rasmiylashtirilib, tegishli organlarga taqdim etiladi. Agar jamoa roziligi berilsa, bu ehtiyot chorasi qo'llaniladi. Shaxs yashash joyini yoki ishini o'zgartirsa, bu haqda darhol xabar berilishi kerak.

Noto'g'ri xulq-atvor bo'lsa, jamoa kafillikdan voz kechishi yoki u boshqa ehtiyot chorasi bilan almashtirilishi mumkin.

253-modda voyaga yetmaganlarni kuzatuv ostiga olish bo'lib, unga ko'ra voyaga yetmagan shaxslar ota-ona, vasiy yoki bolalar muassasasi tomonidan kuzatuvga olinadi. Bu tartib qonunda belgilangan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

254-modda. Harbiy xizmatchining qo'mondonlik kuzatuviga, bunda harbiy xizmatchi yoki harbiy xizmatga majbur shaxs sud yoki tergov qarori bilan harbiy qism qo'mondonligi kuzatuviga berilishi mumkin. Qo'mondonlik shaxsning munosib xulq-atvorini ta'minlash choralarini ko'radi va bu qaror majburiy



hisoblanadi. Agar shaxs noto'g'ri xatti-harakat qilsa, qo'mondonlik darhol tegishli organlarni xabardor qiladi.

2. ISPANIYADA EHTIYOT CHORALARI

Ispaniya jinoyat protsessida ehtiyot choralar **“Ley de Enjuiciamiento Criminal”** bu bizdagi JPK bilan o'xshash qonun bo'lib, shu asosida tartibga solinadi va ushbu tizimning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda qamoqqa olish chorasi “oxirgi chora” (ultima ratio) sifatida qaraladi. Ya'ni, sud avvalo shaxs erkinligini kamroq cheklovchi ehtiyot choralari qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqadi.

Ispaniyada quyidagi ehtiyot choralar keng qo'llaniladi:

- 1) vaqtincha qamoqqa olish
- 2) shartli ozodlik
- 3) garov
- 4) pasportni olib qo'yish
- 5) sudga muntazam kelib turish majburiyati
- 6) yaqinlashmaslik ta'qiqi
- 7) himoya orderi
- 8) elektron kuzatuv vositalari

Mazkur tizim inson huquqlarini maksimal darajada himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, qamoqqa olish faqat zarurat mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

O'zbekiston va Ispaniya tizimlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin, birinchidan, har ikkala davlatda ehtiyot choralarining asosiy maqsadi bir xil bo'lib, ular jinoyat protsessining samarali amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Ikkinchidan, har ikkala tizimda ehtiyot choralar sud qarori asosida qo'llaniladi va shaxsning xulq-atvorini nazorat qilish vazifasini bajaradi. Biroq muhim farqlar ham mavjud, xususan, O'zbekistonda qamoqqa olish chorasi keng qo'llanilsa, Ispaniyada u faqat istisno holat sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, Ispaniyada muqobil ehtiyot choralarining turlari ko'proq va amaliyotda faol qo'llaniladi. Elektron nazorat tizimi ham rivojlangan bo'lib, bu shaxs erkinligini to'liq cheklemasdan turib nazoratni ta'minlaydi. O'zbekistonda esa muqobil choralar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanilishi yetarli darajada rivojlanmagan, albatta buning sababi bizni hali rivojlanayotgan davlat bo'lganimiz, darsda ham muhokama qilgan edik, financial jihatdan hali tayyor emasligimiz haqida)



Endi har bir ehtiyot chorasi turiga to'xtaladigan bo'lsam,

1. Vaqtincha qamoqqa olish (Prisión provisional)

Huquqiy asos: LECrim 502–519-moddalar, ayniqsa 503-modda.

Mazmuni:

Vaqtincha qamoqqa olish - sud qarori bilan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini ozodlikdan mahrum qilish. U faqat eng zarur hollarda, boshqa choralar yetarli bo'lmaganda qo'llaniladi.

Qo'llash shartlari (503-modda): jinoyat og'ir bo'lsa; shaxs qochib ketishi, dalillarni yo'q qilishi yoki yangi jinoyat sodir etishi xavfi mavjud bo'lsa.

Bu chora ultima ratio (oxirgi chora) hisoblanadi.

2. Shartli ozodlik (Libertad provisional)

Huquqiy asos: LECrim 528–544-moddalar

Mazmuni:

Shaxs qamoqqa olinmaydi, biroq sud belgilagan shartlar asosida erkinlikda qoladi. Majburiyatlar buzilsa, sud qamoqqa olish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Asosiy shartlar: sudga muntazam kelib turish; yashash joyi o'zgarganligi haqida xabar berish; pasportni topshirish; ba'zi joylarga borish cheklanishi mumkin.

3. Garov (Fianza)

Huquqiy asos: LECrim 529–533-moddalar

Mazmuni:

Garov- shaxsning sudga kelib turishini kafolatlash uchun pul yoki mol-mulkni depozitga qo'yish majburiyati. Miqdorini sud jinoyatning og'irligi va shaxsning moliyaviy holatiga qarab belgilaydi.

Agar shaxs majburiyatni bajarsa garov qaytariladi; bajarmasa garov davlat foydasiga musodara qilinadi.

4. Pasportni olib qo'yish va chiqishni taqiqlash

Huquqiy asos: LECrim 530-modda (shartli ozodlik doirasida).

Mazmuni: Sud shaxsning milliy pasportini va xorijiy pasportini olib qo'yib, Ispaniyadan chiqib ketishini vaqtincha taqiqlashi mumkin. Maqsad: shaxsning mamlakatni tark etib, tergov yoki suddan qochib ketishining oldini olish.

5. Sudga muntazam kelish majburiyati (Comparecencias)

Huquqiy asos: LECrim 530-modda.

Mazmuni: Shaxs ma'lum kunlarda (masalan, haftada bir marta) sudya yoki politsiya bo'limiga kelib, borligini tasdiqlashi va ro'yxatdan o'tishi shart.

Maqsad: shaxsning doimiy nazorat ostida bo'lishi va yashirib qolishining oldini olish.



6. Yaqinlashishni taqiqlash (Prohibición de aproximación)

Huquqiy asos: LECrim 544 bis-modda.

Mazmuni: Sud jabrlanuvchini himoya qilish maqsadida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga:

- 1) jabrlanuvchiga ma'lum masofadan (masalan, 200 metr) yaqinlashishni;
- 2) u bilan telefon, internet yoki boshqa vositalar orqali aloqa qilishni;
- 3) jabrlanuvchining uyi, ishi yoki o'qish joyiga borishni taqiqlaydi.

Ko'pincha oilaviy zo'ravonlik va shaxsga qarshi jinoyatlarda qo'llaniladi.

7. Himoya orderi (Orden de protección)

Huquqiy asos: LECrim 544 ter-modda.

Mazmuni: Himoya orderi jabrlanuvchini kompleks himoya qilish bo'lib, u bir vaqtning o'zida:

- 1) jinoyatchiga nisbatan yaqinlashish va aloqa qilishni taqiqlaydi;
- 2) jabrlanuvchiga boshpana, yuridik yordam va ijtimoiy xizmatlar olish huquqini beradi;
- 3) politsiya nazoratini kuchaytiradi.

Ko'pincha gender zo'ravonligi va oiladagi zo'ravonlik holatlarida qo'llaniladi.

8. Elektron kuzatuv (bilaguzuk)

Huquqiy asos: LECrimda to'g'ridan-to'g'ri yo'q, lekin Ley Orgánica 1/2004 (gender zo'ravonlikka qarshi qonun) va penitensiar amaliyot asosida qo'llaniladi.

Mazmuni:

Shaxsning to'pig'iga elektron bilaguzuk (GPS) taqiladi. Qurilma uning joylashuvini real vaqt rejimida kuzatib boradi. Agar shaxs jabrlanuvchiga belgilangan masofadan yaqinlashsa yoki taqiqlangan hududga kirsam, politsiyaga avtomatik signal yuboriladi.

Maqsad: jabrlanuvchi xavfsizligini ta'minlash va shaxsni qamoqqa olmasdan nazorat qilish.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI UCHUN TAKLIFLAR

(Ispaniya jinoyat-protsessual tajribasi asosida)

1. Qamoqqa olishni «oxirgi chora» tamoyiliga asoslan holda qo'llashni kuchaytirish kerak, aytmoqchimanki, Ispaniyada prisión provisional faqat boshqa barcha yengilroq choralar yetarli bo'lmaganda qo'llaniladi (LECrin 502–519). O'zbekistonda esa qamoqqa olish nisbatan keng qo'llaniladi.

Taklif: JPK 236 va 242-moddalariga «qamoqqa olish faqat muqobil ehtiyot choralari samarasiz bo'lganda qo'llaniladi» degan qoida kiritilsa maqsadga



muvofiqroq bo'lardi, chunki qamoqqa olish nafaqat ayblanuvchilarga balki davlatga ham zaral, chunki shu vaqtda ularni ovqat bilan ham ta'minlashi kerak.

2. Pasportni olib qo'yish va chiqishni taqiqlash mustaqil ehtiyot chorasi sifatida joriy qilinsa yaxshiroq bo'lardi, bizda bor bu chora lekin u majburlov chorasiga kiritilgan ehtiyot chorasiga emas. Ispaniyada bu chora (LECrin 530-modda) qochib ketish xavfi bo'lgan, ammo qamoqqa olish uchun yetarli asos bo'lmagan hollarda samarali qo'llaniladi. Taklifim shuki, JPKga alohida modda sifatida «mamlakatdan chiqishni taqiqlash va pasportni vaqtincha olib qo'yish» chorasi kiritilsa, ya'ni uni majburlovdan olib, ehtiyot chorasini bir turiga kiritilsa maqsadga muvofiqroq bo'ar edi.

3. Sudga muntazam kelib turish majburiyati alohida va tizimli ravishda qo'llash. Ispaniyada comparencias shaxs politsiya yoki sudga haftada bir necha marta kelib ro'yxatdan o'tishi shart va bu qamoqqa olmasdan nazoratni ta'minlaydi. Taklifim shuki, JPK 250-modda (tilxat) doirasidagi majburiyatlar kengaytirilib, sudga kelish chastotasi va joyi aniq belgilash orqali amalga oshirish mumkin va Ichki ishlar vazirligi va sud departamenti tomonidan pilot loyiha sifatida bir necha shaharda joriy qilinsa foydaliroq bo'lar edi deb hisoblayman.

4. Yaqinlashishni taqiqlash va himoya orderi tizimi joriy qilish

Asos: Ispaniyada prohibición de aproximación (LECrin 544 bis) va orden de protección (544 ter) ayniqsa oilaviy zo'ravonlik va jabrlanuvchilarni himoya qilishda juda samarali. Taklifim shuki, JPKga «jabrlanuvchiga yaqinlashishni, aloqa qilishni va ma'lum hududga kirishni taqiqlash» hamda «jabrlanuvchini kompleks himoya qilish orderi» kiritilsa va bu ham ehtiyot chorasi sifatida kiritishni o'ylab ko'rish kerak, ayniqsa oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi va Oliy sud bilan birgalikda normativ hujjat ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

5. Elektron kuzatuv (bilaguzuk) tizimini kengaytirish va byudjet ajratish

Asos: Ispaniyada elektron bilaguzuk uy qamog'i va yaqinlashishni taqiqlash chorasining bajarilishini real vaqtda nazorat qiladi. O'zbekistonda uy qamog'i qonunda bor, ammo texnik baza yetarli emas. Elektron bilaguzuklar sonini bosqichma-bosqich oshirish, byudjetdan maqsadli mablag' ajratsak, bilaman darsda buno hozircha samarasizligini gaplashgandik, lekin jahon standartlariga yetish uchun ham bilaguzuklardan foydalanishni amalda qo'ysak, jinoyatchilikni ham oldini olishga yordam berardi deb o'ylayman. Hozircha esa, Adliya vazirligi, IIV va Moliya vazirligi tomonidan 3 yillik dastur ishlab chiqilsib, dastlab faqat uy qamog'idagi shaxslar va oilaviy zo'ravonlik holatlarida qo'llansa ham bo'ladi.



UMUMIY XULOSA

O'zbekiston va Ispaniya jinoyat-protsessual tizimlarida ehtiyot choralarining asosiy maqsadi bir xil – tergov va suddan qochishning oldini olish, yangi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik va hukm ijrosini ta'minlash. Biroq, ushbu maqsadlarga erishish yo'llari va choralarni qo'llash chastotasi jihatidan ikki davlat o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. O'zbekistonda qamoqqa olish nisbatan keng qo'llaniladi va u asosiy ehtiyot choralaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, tilxat, shaxsiy va jamoat kafilligi kabi o'ziga xos choralar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy nazoratga asoslangan.

Ispaniyada esa qamoqqa olish faqat oxirgi chora (ultima ratio) sifatida qaraladi. Buning o'rniga pasportni olib qo'yish, mamlakatdan chiqishni taqiqlash, sudga muntazam kelib turish, yaqinlashishni taqiqlash, himoya orderi va elektron kuzatuv kabi muqobil choralar keng qo'llaniladi. Bu tizim shaxs erkinligini maksimal darajada himoya qiladi. O'zbekiston Ispaniyaning quyidagi tajribalarini o'zlashtirishi maqsadga muvofiq:

1. Qamoqqa olishni faqat muqobil choralar samarasiz bo'lganda qo'llash tamoyilini kuchaytirish;
 2. Pasportni olib qo'yish va chiqishni taqiqlashni mustaqil ehtiyot chorasi sifatida joriy qilish;
 3. Sudga muntazam kelish majburiyatini tizimli ravishda qo'llash;
 4. Yaqinlashishni taqiqlash va himoya orderi institutini yaratish;
 5. Elektron kuzatuv tizimini kengaytirish va byudjet mablag'larini yo'naltirish;
- Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston o'zining an'anaviy ehtiyot choralari tizimini saqlab qolgan holda, Ispaniyaning ilg'or va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlarini bosqichma-bosqich joriy etishi mumkin. Bu jinoyat protsessining samaradorligini oshirish bilan birga, shaxs erkinligini haddan tashqari cheklamaslik tamoyiliga ham javob beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan manbaalar:

1. Jinoyat Protsessual kodeksi (O'zb)
2. Ley de Enjuiciamiento Criminal (Ispaniya JPK)
3. Mavzuga doir maqolalar
4. Google translator ispan tilidan o'zbek tiliga